

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MALIKZODA ABDULATIF ABDUBANNON O‘G‘LI

**BOKS SPORT TURI BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK GURUHIGA
SELEKSIYA QILISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstrast of Dostor of Philosophy (PhD)
on Psychological Ssienses**

Malikzoda Abdulatif Abdubannon o‘g‘li Boks sport turi boshlang‘ich tayyorgarlik guruhiga seleksiya qilishning psixologik mexanizmlari.....	3
Маликзода Абдулатиф Абдубаннон угли Психологические механизмы отбора в группу начальной подготовки занятий боксом.....	23
Malikzada is the son of Abdulatif Abdubannon Psychological mechanisms of selection for the initial training group of the sport of boxing.....	45
E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	49

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MALIKZODA ABDULATIF ABDUBANNON O‘G‘LI

**BOKS SPORT TURI BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK GURUHIGA
SELEKSIYA QILISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/P383 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.tdpu.uz va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Hayitov Oybek Eshboevich psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	Umarov Baxriddin Mengboevich psixologiya fanlari doktori professor
Rasmiy opponentlar:	Tadjibayeva Shaxista Mamatqulovna psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__»_____ kuni soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__»_____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__»_____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

F.A. Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, psixologiya
fanlari doktori, professor

N.B. Atabaeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori, professor

Z.T. Nishanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda boks sport turi jadallik bilan rivojlanib borish tendensiyasi kuchayib, kun sayin yangi rekordlar va yangi chempionlar kashf etilmoqda. Bu esa hozirgi davrda insonlar uchun sport faoliyati nafaqat kasb, balki hayot tarziga aylanib borayotganligini, eng ommaviy va sevimli sport turiga aylanganligini ko'rsatmoqda. 1880-2024-yillar oralig'ida 60 dan ortiq boks bo'yicha tashkilotlari tuzilgan bo'lib, ulardan 4 tasi: WBA (World Boxing Association), WBO (World Boxing Organization), IBA (International Boxing Association), WBC (World Boxing Council) yetakchilik pozitsiyasini saqlab qolganligi¹, hatto boks sport turi bilan nafaqat erkaklar balki ayollarning ham shug'ullanishi ommalashganligi kuzatiladi. Boks bo'yicha o'smirlar, yoshlar va kattalar o'rtasida muntazam ravishda jahon, qit'a chempionatlari va kuboklari o'tkazilib kelinayotganligi, boks bo'yicha bunday tadbirlar turlari va ko'rinishlarining ko'pligi, mazkur sport turida boshlang'ich tayyorgarlik guruhiga seleksiya qilishning psixologik mexanizmlarini maxsus ilmiy tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida boks sport turi bilan bog'liq masalalar dolzarbligini saqlab qolib, boks 1904-yilda olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. Boks bugungi kunga qadar olimpiya o'yinlari dasturidan doimiy ravishda o'rin egallab kelishi, shu davr mobaynida jahonda mashhur Muhammad Ali, Mayk Tayson, Lennoks Lyus, Feliks Savon, Roy Jons, O'zbekistondan esa Muhammadqodir Abdullayev, Xasanboy Do'stmatov, Shahobiddin Zoirov, Fazliddin G'oyibnazarov, Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev, Lazizbek Mullajonov, Bahodir Jalolov va boshqa taniqli bokschi Olimpiada chempionlari va sovrindorlari bo'lishgan. Parij-2024 Olimpiya o'yinlarida boks sport turi bo'yicha 13 ta vazn toifalarida sportchilar medallar uchun ringga ko'tarilganligi, erkak bokschi orasida 51, 57, 63.5, 71, 80, 92 va 92 kg dan ortiq vazn toifasida; ayollar o'rtasida 50, 54, 57, 60, 66, va 75 kg gacha bo'lgan vazn toifalarida medallar uchun musobaqalar o'tkazilganligi mazkur muammoni yanada dolzarblashtiradi.

Yangi O'zbekistonda yoshlar va barcha ko'ngillilar uchun sport tadbirlari, davra suhbatlari, mahorat saboqlarini tashkil etish bo'yicha, sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishining zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilgan². 1994-yildan esa Osiyo o'yinlarida, 1996-yildan olimpiya o'yinlarida, O'zbekiston ishtirok etib kelishi tufayli bugungi kunga kelib boks bo'yicha dunyoning eng kuchli mamlakati sifatida tanildi. Bu esa Osiyo, jahon chempionatlari va olimpiya o'yinlarining eng yaxshi jamoasi bo'lishi³, Dubaydagi boks bo'yicha Osiyo chempionatida 1-o'rinni qo'lga kiritgan Sitara Turdibekovani Bulung'ur

¹ <https://www.iba.sport>, <https://worldboxing.org>, <https://www.wbaboxing.com> World Boxing Association. International Boxing Association

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi "Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5099-sonli qarori

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi "Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5099-sonli qarori,

tumanidagi sport maktabida “Mahorat darslari”ni o‘tkazganligi, Jahon chempioni Bahodir Jalolov nomidagi boks mahorat maktabining ochilganligi va boshqa dalillar tadqiqotimiz muammosini dolzarblashtirib, uni ilmiy tadqiq etishga zarur asos bo‘la oladi.

2023-yil 1-maydagi O‘RQ–837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2022-yil 6-iyundagi PQ-268-son «Davlat sport-ta’lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-son «Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 4-martdagi 122-son «Sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston-2030 strategiyasi» ning har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi 34-37 maqsadlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan R.A. Abdurasulov, B.S. Abdullayeva, D.U. Abdullayeva, F.A. Akramova, D.N. Arzikulov, N.B. Atabaeva, K.G. Atabekova, A.S. Begmatov, Sh.R. Baratov, F.T. Egamberdiyev, Z.H. Fayziyev, Z.E. Gaziyeva, Z.G. Gapparov, O.E. Hayitov, J.M. Ishtayev, V.M. Karimova, N.G‘. Komilova, Z.T. Nishonova, A.M. Nazarov, D.B. Nazarov, D.Sh. Nosirov, J.A. Pulatov, U.D. Qodirov, E.N. Sirliev, A.A. Sobirov, Sh.M. Tadjiboeva, N.Sh. Umarova, B.M. Umarov, N.Sh. Usmonaliev va boshqalar tomonidan shaxsning motivatsiyasi, sport faoliyatidagi shaxsiy va irodaviy sifatlarning rivojlanishi, sport faoliyati davomidagi o‘zaro munosabatlar tizimi hamda ularni korreksiyalashga ta’sir etuvchi omillari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan M.S. Bril, B.S. Daxovskiy, V.G. Guba, A.A. Kudinov, A.P. Kashin, V.S. Merlin, L.P. Matveyev, P.A. Piloyan, I.P. Pavlov, P.A. Rudik, A.V. Rodionov, A.D. Suxanov, B.M. Smirnov, G.S. Tumanyan, I.P. Volkov, B.A. Vyatkin, S.B. Xrushchev, B.I. Yakubchik, V.B. Shverts, V.N. Shadrin va boshqalar ilmiy tadqiqotlarda sport turlariga xos psixologik xususiyatlar, sport turlarini sportchilar rivojlanishiga ta’siri hamda sport natijalarga ta’sir ko‘rsatadigan psixologik omillar atroflicha ilmiy o‘rganilgan.

Xorijlik psixolog olimlardan P.O. Astrand, N.P. Barnet, U.F. Julio, P.D. Knop, A.D. Monte, T. Mozer, V.L. Panissa, G.C. Roberts, F.L. Smoll, R.E. Smith, D. Tingley va boshqalar tomonidan sportchiga qobiliyatning o'tadan o'tishi, sport turlari bilan erta shug'ullanishni boshlashning yutuqlari, sport turini tanlashda marfofunksional ko'rsatgichlari va irsiy belgilarni ahamiyati va sport mahoratining eng yuqori darajaga qadar o'sishini ta'minlash masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan uzviy bog'liqligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 y.y).

Tadqiqotning maqsadi boks sport turi boshlang'ich tayyorgarlik guruhiga bokschilarni seleksiya qilish jarayonining psixologik mexanizmlarini o'rganish va ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boks sport turiga seleksiya qilishning psixodiagnostik mezonlarini tadqiq qilish;

boks sport turi bilan shug'ullanib kelayotgan yoshlarni sport musobaqalarida yuqori natijalar ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan psixologik omillarni aniqlash;

boks sport turida sport sog'lomlashtirish va o'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanayotgan sportchilarning shaxsiy sifatlarini differensial hamda hududiy farqlarni aniqlash;

bokschilarni guruhga seleksiya qilishda ota-ona, sport psixologi, trener-o'qituvchi hamkorligini o'zida mujassamlashtirgan psixologik model ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida boks sport turi bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik guruhiga sportchilarni seleksiya qilishning psixologik mexanizmlari olingan bo'lib, tadqiqotda Toshkent shahri Yunusobod tumani 1-son sport maktabi, Farg'ona viloyati Buvayda tumani sport maktabi hamda Guliston olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlaridagi turli yosh toifalariga mansub jami 217 nafar respondent ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti boks sport turida yuqori natijalarga erishish uchun sportchilarni to'g'ri tanlash, ularning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda seleksiya jarayonini ilmiy asoslangan holda tashkil etish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda M.V. Chumakovning «Shaxsning irodaviy sifatleri» nomli testi (savolnomasi)ning E.G'. G'oziyev tomonidan modifikatsiya qilingan varianti, J. Krendellning «Ijtimoiy qiziqishlar shkalasi» testi, G.Y. Ayzenkning «Temperamentni aniqlash testi», A.A. Reanning

«Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qoʻrqish motivatsiyasi» testi, A.V. Shaboltasning «Sport bilan shugʻullanish motivi» metodikasi, P.A. Rudikning «Sportchilarni reaksiya koʻrsatgichlarini aniqlash» metodikalari, hammualliflikdagi «Boks sport turiga seleksiya qilish savolnomasi» (O.E.Hayitov, A.A. Malikzoda)dan foydalanilgan. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan Studentning t-mezoni va Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sportchilarni guruhga saralab, olishda foydalanish uchun bokschilarning maqsadga yoʻnalganlik ustanovkalarini, sportga oid bilimlarni kognitiv xususiyatlarda namoyon boʻlishini, shaxsning hissiy-emotsional sohasini diagnostika qilishga qaratilgan “Boks sport turiga seleksiya qilish savolnomasi” ishlab chiqilgan;

boks sport turi bilan shugʻullanib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy qiziqishlarini yuqoriligi, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini kuchliligi, reaksiyasini kuchliligi, xolerik va flegmatik temperamentiga mansubligi, sport musobaqalarida yuqori natijalar koʻrsatayotganligi musobaqa natijalari asosida dalillangan;

boks sport guruhlaridagi sportchilarning motiv va shaxsiy sifatlariga koʻra “Oʻquv-mashgʻulot guruhleri”da shugʻullanayotgan sportchilarda tirishqoqlik, maqsadga yoʻnalganlik, ziyraklilik, mustaqillik, vatanparvarlik, masʼuliyatlilik xususiyatlari va muvaffaqiyatga erishish, sportni bilish, jismoniy oʻz-oʻzini tasdiqlash, axloqiy motivlari, “Sport sogʻlomlashtirish guruhleri”da shugʻullanayotgan sportchilarda esa matonatlilik, gʻayratlilik, kognitiv jihatlari va emotsional zavqlanish motivining ustuvorligi tufayli differensial va hududiy farqlarning mavjudligi isbotlangan;

boks sport turiga seleksiya qilish jarayonida sportchilarni guruhlariga saralash imkoniyatlarini aniqlashda ota-onalar, sport psixologlari va trener-oʻqituvchilarning ishtirokini ijobiy hamda salbiy jihatlari bilan tahlil qilib, ushbu jarayonni diagnostika qilish va korreksiyalash mezonlari asosida “Ota-ona, sport psixologi va trener-oʻqituvchi” hamkorlik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boks sport turiga seleksiya qilishda foydalanish uchun “Boks sport turiga seleksiya qilish savolnoma”si ishlab chiqilib, amaliyotda aprobatsiya qilingan;

bokschilarni reaksiya darajasi aniqlanib, xolerik temperament egalarida reaksiya darajasi yuqori, flegmatik temperament egalarida reaksiya darajasi oʻrta, sangvinik temperament egalarida reaksiya darajasi past, melanxolik temperament egalarida reaksiya darajasi juda past ekanligi aniqlanib, amaliyotda joriy etilgan;

sport maktablari, ixtisoslashgan sport maktablari, sport turlariga ixtisoslashgan davlat maktab internatlari, oliy sport mahorat maktablari va olimpiya hamda paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida faoliyat olib borayotgan sport psixologlari uchun sportchilarni seleksiya qilishda foydalanish maqsadida «Ota-ona», «Sport psixologi» va «Trener-oʻqituvchi» modeli mazmunida sport zaxirasini saralab olishda ijobiy va salbiy omillar yoritilib, ushbu omillarni oldini olish boʻyicha ijtimoiy-psixologik koʻrsatmalar taqdim etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotimizda qo‘llanilgan nazariy va amaliy yondashuvlar, muammoning aniq belgilanganligi hamda xalqaro miqyosda e’tirof etilgan ilmiy-metodik vositalarga asoslanganligi uning ilmiy ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari Respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalar materiallarida, OAK ro‘yxatiga kiritilgan maxsus jurnallarda va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalar bilan tasdiqlangan. Ilmiy xulosalar amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, olingan natijalar tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning ilmiy yangiligi hamda qo‘llanilgan tadqiqot metodlarining ishonchliligidan kelib chiqqan. Shuningdek, empirik tadqiqot dasturini ishlab chiqish usullari va mazmuniy-statistik tahlilning qo‘llanilishi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘ziga xos metodologik yondashuvlarning tadqiqotimizda kompleks ravishda qo‘llanilishi boks sport turining psixologik xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan olingan ma’lumotlar «Sport psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Psixologik korreksiya» kabi fanlarni yangi ma’lumotlar bilan boyitadi, shu bilan birga, natijalar yuqoridagi fanlardan o‘quv qo‘llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, u “Sport psixologiyasi” va “Ijtimoiy psixologiya” kabi fanlarni ilmiy asoslangan yangi ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida olingan natijalar sport federatsiyalari, assotsiatsiyalar va sport maktablari faoliyatida qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: boks sport turi boshlang‘ich tayyorlov guruhlariga seleksiya qilishning psixologik mexanizmlari mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot asosida:

sportchilarni guruhga saralab, olishda foydalanish uchun bokschilarning maqsadga yo‘nalganlik ustanovkalarini, sportga oid bilimlarni kognitiv xususiyatlarda namoyon bo‘lishini, shaxsning hissiy-emotsional sohasini diagnostika qilishga qaratilgan “Boks sport turiga seleksiya qilish savolnoma”si ishlab chiqilgan yangilik O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi PM-310-son buyrug‘i bilan «Sport psixologiyasi» moduli kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 29-yanvardagi PM-310a-son ma’lumotnomasi). Natijada boks sport turiga seleksiya qilish jaryonida “Boks sport turiga seleksiya qilish savolnomasi”dan foydalanish imkoni yaratilgan;

boks sport turi bilan shug‘ullanayotgan yoshlarning ijtimoiy qiziqishlari yuqori bo‘lib, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kuchli ekanligi aniqlangan, reaksiyasini kuchliligi, xolerik va flegmatik temperamentiga mansubligi, sport musobaqalarida yuqori natijalar ko‘rsatayotganligi musobaqa natijalari asosida dalillangan yangilik O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi PM-310-son buyrug‘i bilan «Sport psixologiyasi» moduli

kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 29-yanvardagi PM-310a-son ma’lumotnomasi). Natijada boks sport turi bilan shug‘ullanib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy qiziqishlarini farqlash imkoniyati yaratilgan;

boks sport turi guruhlaridagi sportchilarning motiv va shaxsiy sifatlariga ko‘ra “O‘quv-mashg‘ulot guruhleri”da shug‘ullanayotgan sportchilarda tirishqoqlik, maqsadga yo‘nalganlik, ziyraklilik, mustaqillik, vatanparvarlik, mas‘uliyatlilik xususiyatlari va muvaffaqiyatga erishish, sportni bilish, jismoniy o‘z-o‘zini tasdiqlash, axloqiy motivlari, “Sport sog‘lomlashtirish guruhleri”da shug‘ullanayotgan sportchilarda esa matonatlilik, g‘ayratlilik, kognitiv jihatlari va emotsional zavqlanish motivining ustuvorligi tufayli differensial va hududiy farqlarning mavjudligi isbotlangan yangilik O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi PM-310-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiyasi» moduli kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 29-yanvardagi PM-310a-son ma’lumotnomasi). Natijada, sport maktablarining boks bo‘limlariga yangi kelgan yoshlar orasidan temperament jihatidan mos sportchilarni jalb etish orqali, sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari kengaytirilgan;

boks sport turiga seleksiya qilish jarayonida sportchilarni guruhlariga saralash imkoniyatlarini aniqlashda ota-ona, sport psixologlari va trener-o‘qituvchilarning ishtirokini ularni ijobiy hamda salbiy jihatlari tahlil qilinib, ushbu jarayonni diagnostika qilish va korreksiyalash mezonlari asosida “Ota-ona, sport psixologi va trener-o‘qituvchi” hamkorlik modeli ishlab chiqilgan yangilik O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi PM-310-son buyrug‘i bilan «Sport psixologiyasi» moduli kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 29-yanvardagi PM-310a-son ma’lumotnomasi). Natijada – bokschilarni guruhga seleksiya qilishda ota-ona, sport psixologi, trener-o‘qituvchi hamkorligi modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro hamda 4 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinib, ilmiy jamoatchilik tomonidan tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 3 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda e‘lon qilingan. Ushbu maqolalarning 5 tasi respublika miqyosidagi jurnallarda, 1 tasi esa xorijiy ilmiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish qismi, uchta bob, xulosalar, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 161 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari, rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi va e‘lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Boks sport turiga seleksiyani amalga oshirishning nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan bo‘lib, boks sport turida sport natijalariga ta‘sir qiluvchi psixologik omillar va sport maktablariga seleksiya jarayonini amalga oshirishning psixologik va uslubiy xususiyatlari, yuzasidan ijtimoiy-psixologik qarashlar, boks sport turida sport natijalariga ta‘sir qiluvchi psixologik omillar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, boks sport turining bugungi kundagi rivojlanishi va natijalari, tashkiliy va uslubiy xususiyatlari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Boks sport turi boshlang‘ich tayyorgarlik guruhiga seleksiya qilishning metodologik jihatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha tadqiqotning empirik asoslari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi, turli holatlarda sportchilarni psixologik barqarorligini ta‘minlovchi usullar, omillar, tadqiqot obyektlari va ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va bob bo‘yicha xulosalar o‘z aksini topgan.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 70% holatlarda sportchilar uchun eng og‘ir va salbiy hodisalardan biri bir trenerdan boshqasiga o‘tish jarayonidir. Bu holat sport natijalarining oshishi yoki yosh toifasining o‘zgarishi natijasida o‘smirlar jamoasidan kattalar jamoasiga o‘tish, ota-onalar tomonidan boshqa trenerga o‘tkazish kabi sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Mazkur yondashuv 1-rasmda qayd etilgan.




1-rasm. “Trener – sportchi” munosabatlarini shakllantiruvchi asosiy omillar

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Boks sport turi boshlang‘ich tayyorgarlik guruhiga seleksiya qilishda olib borilgan psixologik tadqiqot natijalari**» deb nomlangan bu bobda tajribamizda ishtirok etgan respondentlardan metodikalar bo‘yicha olingan natijalarini psixologik tahlili,

boks sport turiga seleksiya qilish uchun ishlab chiqilgan anketa savollariga respondentlarning javoblari bo'yicha psixokorreksion natijalari bayon etilgan. Boks sport turi bilan shug'ullanib kelayotgan sportchilarni mashg'ulot va musobaqalar uchun seleksiya jarayonlarini samarali tashkil etishda "Ota-ona", "Sport psixologi" va "Trener-o'qituvchi" hamkorlik modeli tafsilotlari yoritib berilgan. Bob bo'yicha xulosalar, sport psixologlar, trener-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar berilgan.

«Boks sport turiga seleksiya qilish savolnoma»sida eng yoqtirgan sportchingiz kim? Deya berilgan savolga sportchi yoshlar Murodjon Ahmadaliyev, Mayk Tayson, Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'smatov, Muhammad Ali, Shohjahon Ergashev, Shaxram G'iyasov, Isroil Madrimov nomlarini yozib berishgan.




2-rasm. Boks sport turiga seleksiya qilish jarayoniga oila, referent guruhlar munosabati

E'tibor bergan bo'lsangiz yuqorida nomlari qayt etilgan sportchilar o'z davrlarining eng kuchlilari hisoblanadi. Kuchlilarga qilingan taqlid va havas yoshlarni albatta kuni kelib ular singar chempion bo'lishlaridan dalolat beradi. Bundan tashqari yuqorida nomlari keltirilgan sportchilar bugungi kunda ijtimoiy obro' e'tiborga ega yoshlar hisoblanishadi. Kimni tavsiyasi bilan boks sport turini tanlagansiz? Bu savolga respondentlarning 68% ota-onalarining 8% respondentlar aka-ukalari, 6% respondentlar do'stlarini tavsiyasi asosida boks sport turiga kirib kelganligi va sport turiga qiziqishi uyg'onganligini, bugungi kunda oldilariga katta maqsadlar qo'yib boks bilan jiddiy shug'ullanib kelayotganliklarini bildirishgan. Respondentlarning 13% yaqin qarindoshlarining tavsiyasi asosida boks sport turiga kirib kelishganligini ta'kidlashgan. 3% respondentlar do'stlarini tavsiyasi asosida sportga kirib kelishgan bo'lishsa, respondentlarning 2% boshqa sabablarga ko'ra boks sport turini tanlaganliklarini so'rovnomada ko'rsatishgan. Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki ota-onalar o'z farzandlarini har tomonlama kuchli bo'lib kamol topishi va sportda yuqori natijalar ko'rsatishini xohlashadi. Bugungi kunda yurtimizdagi eng ommaviy sport turi boks sport turi ekanligi sir emas albatta bunga sabab yurtimiz sportchilari bugungi kunda havaskorlar boksida dunyo reytingida birinchi o'rinda borayotganligi va sportchilarimiz munosib taqdirlanib kelinayotganligi natijasidir.

Boks sport turini tanlashga oilangiz rozimi? Bu savolga respondentlarning 92% ha, 8% yo'q deya javob berishgan. Oila vakillarini roziligi sportchini har tomonlama qo'llab quvvatlanishi, sportchi uchun katta motivatsiya bo'ladi va sportda yuqori natijalar tomon yetaklaydi. Oiladagi to'siqlar esa bola uchun stressli holatdir. Bunday bolalardagi holatni ikki xil talqin qilish mumkin: Birinchidan

boladan oila a'zolar ko'p xavotir olishlari natijasida kelib chiqadi. Chunki boks juda og'ir sport turi. Ikkinchidan bolani qiziqishlarini oilada inobatga olinmasligi deb qarash mumkin. Bunday bolalar oxir oqibat sportni tark etishadi.



3-rasm. Sportni tanlash maqsadi va undan keyingi jarayonlarga bo'lgan munosabati

Boks sport turiga kelishingizdan asosiy maqsad nima? Bu savolga respondentlarning 61% chempion bo'lish, 19% respondentlar ko'p pul topish, 16% respondentlar nom chiqarish, 2% respondentlar o'zlarini himoya qilish, 1% respondentlar sog'lom bo'lish, 1% respondentlar boshqa maqsadlarda boks bilan shug'ullanishayotganliklarini ko'rsatib o'tishgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki shug'ullanuvchilarning asosiy maqsadi chempion bo'lish, sportda ma'lum natijalarga erishish ekanligini ko'rishimiz mumkin. Sportni tugatganingizdan so'ng nima ish qilasiz? savoliga 78% respondentlar murabbiy bo'lishlarini bildirishgan. 17% respondentlar esa biznes ya'ni turli darajadagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlarini bildirishgan. 5% respondentlar sport faoliyatini tugatganlaridan keyin boshqa ishlar bilan band bo'lishlarini anketa savolnomalarida qayd etishgan. Bundan ko'rinib turibdiki respondentlarning juda ko'p qismi o'z ustozlari kabi murabbiylik faoliyatiga qiziqishlari aniqlandi.

1-jadvaldagi «Boks sport turiga seleksiya qilish savolnoma»si (N.Sh.Umarova, A.A.Malikzoda) bo'yicha 217 nafar respondentlardan olingan natijalarini shahar va qishloq tipidagi bolalarni taqqoslama tahlili bo'yicha So'rovnomadani olingan natijalarga ko'ra, shahar tipida yashovchi 75 % bolalarning asosiy maqsadlardan biri nom chiqarish ommaga o'zini tanitish ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qishloq tipidagi 83 % bolalarni asosiy maqsadlari chempion bo'lish. Bundan ko'rinadiki, ular bor imkoniyatlarini va vaqtlarini mashg'ulotga ajratadi va o'z orzusiga erishish yo'lida to'xtamaydilar.

Shahar tipida yashovchi 87 % bolalarni eng yaqin maslahatdoshlari ota-onalar va ular ota-onasining maslahatlaridan foydalanishadi. Qishloq tipidagi bolalarni 32 % ota-onalarini tavsiyasi asosida sport turini tanlashgan bo'lishsa 68 % aka - uka qarindoshlari va do'stlarining tavsiyalarini qo'llab quvvatlashadi. Bundan ko'rinadiki qishloqlarda qarindoshlik an'analari va do'stlik munosabatlari saqlanib qolgan.

Sport faoliyatini tugatganlaridan keyin shahar tipidagi bolalarni 90 % biznes bilan shug'ullanishlarini bildirishgan bundan ko'rinadiki yurtimizda tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlardan foydalanayotgan insonlar faoliyatini

ijtimoiy tarmoqlarda kuzatib borishadi va boy bo'lishga, ko'p pul topishga intilishadi. Qishloq tipidagi bolalarni 72 % sport faoliyatini tugatganlaridan keyin trenerlik faoliyati bilan shug'ullanishlarini bildirishgan. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak qishloq joylarda hali hamon ustoz shogird qadriyatlari saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

1 - jadval

«Boks sport turiga seleksiya qilish savolnoma»si bo'yicha olingan natijalarni shahar va qishloq tipidagi bolalarda taqqoslama natijalari

T/r	So'rovnoma bloklari	So'rovnomaning asosiy savollari	Shahar tipidagi seleksiya qilinganlar n1=95	Qishloq tipidagi seleksiya qilinganlar n1=122
1	Maqsad yo'nalgan ustanovkalar	Boks sport turiga kelishingizdan asosiy maqsad?	Nom chiqarish	Chempion bo'lish
		Kimni tavsiyasi bilan boks sport turiga keldingiz?	Ota-onamni	Aka-uka, qarindoshlar va do'stlar
2	Faoliyatga nisbatan munosabatlar namoyon bo'lishi	Sportni tugatganingizdan so'ng nima ish qilasiz?	biznes bilan shug'ullanaman	Murabbiy bo'laman
		Siz havaskor bokschi bo'lishni xohlaysizmi yoki professional bokschi?	Havaskor bokschi bo'laman	Professional bokschi bo'laman
3	Hissiy-emotsional soha	Musobaqalarda mag'lubiyatga uchrasangiz nima qilasiz?	Sportni tashlayman	G'alaba uchun bundan ham yaxshiroq shug'ullanaman
		Siz uchun murabbiy qanday ahamiyatga ega?	Akamday ko'raman	Otamday ko'raman

Siz havaskor bokschi bo'lishni xohlaysizmi yoki professional bokschi deya berilgan savolga shahar tipidagi bolalarni 89 % havaskor bokschi bo'lishni bildirishgan. Demak bugungi shahar bolalari o'zlarini qiynashni istashmaydi ular ma'lum vaqtdan keyin sportni tark etish ehtimoli yuqori. Qishloq tipidagi bolalarni 76% professional darajada ya'ni oxirgi imkoniyatlari qolguncha sport turi bilan shug'ullanishni va sportni kasb sifati olib borib sport orqali o'z oilalarini moddiy ta'minlashni xohlashadi. Sport faoliyatida g'alaba va mag'lubiyat doim yonma-yon yuradi. Shahar tipidagi bolalarni 75 % musobaqalarda mag'lubiyatga uchragan paytlarida sportni tark etishlarini bildirishgan, bu esa shahar tipidagi bolalarni kunlik faoliyatlarida og'ir jismoniy harakatlarini yo'qligi sabab ularda irodaviy sifatlar yaxshi rivojlanmay qolishi natijasida qiyinchiliklarga kirishishni xohlashmaydi degan xulosaga kelishga imkon beradi. Qishloq tipidagi bolalarni 83 % g'alaba uchun bundan ham yaxshiroq shug'ullanishlarini bildirishgan. Bu bolalar bundan ham ko'proq yuklamalarni bajarishlari mumkin va g'alaba qozonmaguncha maqsadlaridan qaytishmaydi.

Siz uchun murabbiy qanday ahamiyatga ega. Bu savolga shahar tipidagi bolalarni 76 % akamday ko'raman deyishgan bo'lishsa, qishloq tipidagi bolalarni 72 % otamday ko'raman deb javob berishgan. Albatta akalar hayotda uka uchun

ko‘p ishlar qilishi mumkin, lekin ota bajargan ishlarni bajara olishmaydi. Shunday murabbiylar borki shogirdlarini farzandi singari ko‘radi, ular uchun borini berishadi. Shuning uchun ham bolalar murabbiylarini o‘z otalaridek yaxshi ko‘rishadi.

2-jadvalda keltirilgan A.A.Reanning “Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish motivatsiyasi” testi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, jami 217 nafar respondentlarning 80,7% muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ustunlik qilganligini ko‘rish mumkin. 13,8% respondentlarda belgilangan polus ifodalanmagan, 5,5% respondentlarda muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi ustunlik qiladi.

2 - jadval

A.A.Reanning Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi testi bo‘yicha olingan natijalarni statistik ko‘rsatkichi

Shkalalar	Tajriba natijalari	
	Javob bergan respondent soni	Umumiy respondentlar respondentlar n1=217 ga nisbatan % da
Muvaffaqiyatsizlikdan qochish yuqori ifodalangan (1-7 ball)	12	5,5 %
Muvaffaqiyatga erishishga intilish yuqori ifodalangan (14-20 ball)	175	80,7 %
Belgilangan motivatsion polyuslar ifodalanmagan (8-13 ball)	30	13,8 %

Motivlar ayni paytda sportchilar xatti-harakatini boshqarishda ham muhim vositadir. Shu boisdan trener-o‘qituvchilar o‘z shogirdlari motivlarini har tomonlama o‘rganishlari lozim. Motivlarni bilish orqali murabbiy sportchining o‘quv-mashg‘ulot jarayonlaridagi faolligini oshirishi, uning musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Sport faoliyatida muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi sport yutuqlarini qo‘lga kiritish va sport bilan shug‘ullanishga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasiga tayangan sportchilarda birinchilardan farqli o‘laroq, faoliyatni boshlashdan avval nima bo‘lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo‘lmaslikni o‘ylaydilar. Shu sababli ularda ko‘proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, holati kuzatiladi.

3-jadvaldagi natijalar korrelyatsiya qilinganda sportni bilish motivi bilan ($r=-0,151$; $p<0,05$), tirishqoqlik sifati ($r=-0,136$; $p<0,05$), va ($r=-0,152$; $p<0,05$), g‘ayratlilik sifatlari o‘zaro teskari korrelyatsion bog‘liqligi aniqlandi. Sportni bilish motivi yaxshi rivojlangan bolalarda tirishqoqlik sifati va g‘ayratlilik sifati boshqa sifatlarga qaraganda yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Sportni bilish uchun tirishqoqlik va g‘ayratlilik bilan izlanish lozim bo‘ladi. Sportni yutuqlari va qiyinchiliklarni anglash orqali sport turini tanlagan bolalarda shu sport turida muvaffaqiyatga erishish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi. Chunki bola o‘zi tanlagan

yo'lini xavf xatarlaridan tortib yuqori natijalarga erishgan taqdirda nimalarga erishishi mumkinligini bilgan xolda harakat qiladi.

3 – jadval

A.V.Shaboltasning «Sport bilan shug‘ullanish motivi» metodikasi va M.V. Chumakovning “Shaxsning irodaviy sifatleri” testi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik natijalari

Shkalalari	MK	TK	QK	MSK	MT	TRK	G‘K	ZK	SK
Emotsional zavqlanish motivi	0,267	0,528	0,605	0,714	0,712	0,781	0,333	0,684	0,636
Ijtimoiy o‘zini-o‘zi tasdiqlash motivi	0,199	0,096	0,944	0,951	0,634	0,260	0,671	0,605	0,306
Jismoniy o‘zini-o‘zi tasdiqlash motivi	0,530	0,567	0,581	0,503	0,830	0,441	0,322	0,940	0,700
Ijtimoiy-emotsional motiv	0,112	0,577	0,197	0,660	0,988	0,538	0,664	0,974	0,730
Ijtimoiy-axloqiy motiv	0,852	0,876	0,360	0,479	0,495	0,734	0,991	0,696	0,474
Sportda muvaffaqiyatga erishish motivi	0,055	0,722	0,747	0,221	0,251	0,306	0,670	0,769	0,610
Sportni bilish motivi	-0,151*	-0,014	0,027	0,025	-0,001	-0,136*	-0,152*	-0,108	-0,057
Ratsional-irodaviy (rekreativ) motiv	0,296	0,460	0,718	0,516	0,449	0,559	0,948	0,524	0,392
Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish motivi	-0,072	-0,041	-0,037	0,220**	0,085	-0,012	0,078	0,084	0,054
Fuqarolik-vatanparvarlik motivi	0,174*	-0,127	-0,110	0,036	0,047	-0,039	-0,031	-0,023	-0,047

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01. MK Mas‘uliyatlilik, TK Tashabbuskorlik, QK Qatiyatlilik, MSK Mustaqillik, MT Matonat, TRK Tirishqoqlik, G‘K G‘ayratlilik, ZK Ziyraklik, SK Sobitqadamlik

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish motivi bilan mustaqillik sifati ($r=-0,220$; $p<0,01$), o‘zaro yuqori bog‘liqlikni ko‘rsatgan. Bundan ko‘rinadiki bolalarni yoshligidan mustaqil fikrlashga o‘rgatadigan bo‘lsak ularda kelajakda tanlaydigan kasbiga yoshligidan tayyor bo‘lib boradi. Mustaqil tarzda o‘zi yoqtirgan kasbini tanlaydi va o‘sha kasbda muvaffaqiyatga erishadi.

Fuqarolik-vatanparvarlik motivi bilan mas‘uliyatlilik ($r=0,174$; $p<0,05$), sifati o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatgan. Bunda mas‘uliyatlilik sifati yoshligidan rivojlangan bolalar kelajakda fuqarolik va vatanparvarlik ruhida kamol topadi. Mashg‘ulotda va o‘z faoliyatida mas‘uliyatlilikni birinchi o‘ringa qo‘yish juda katta tartib intizom egasi ekanligidan darak beradi. Yoshlarimizda vatanparvarlik motivini mavjudligi sport bilan shug‘ullanishda va musobaqalarda ishtirok

etishlarida nafaqat shaxsiy manfaatlarini qolaversa el yurt manfaati uchun ham g'alabaga intilishadi.

4 - jadval

Sport sog'lomlashtirish guruhleri va o'quv mashg'ulot guruhlaridagi sportchilarining motiv, reaksiya va shaxsiy sifatlaridagi farqlanishlari

Shaxs xususiyatlari	O'quv-mashg'ulot guruhidagi sportchilar n1=104		Sport sog'lomlashtirish guruhidagi sportchilar n1=113		Tafovutlar statistik ahamiyati	
	X	S	X	S	t	p
Tirishqoqlik	75,3	7,5	51,1	7,2	3,58	0,01
G'ayratlilik	8,2	1,9	12,1	1,1	1,98	0,05
Reaksiya ko'rsatgichlari	19,9	2,9	12,9	1,1	2,85	0,05
Sportda muvaffaqiyatga erishish motivi	12,9	2,1	8,2	2,1	3,01	0,05
Maqsadga yo'nalganlik	53,6	4,1	31,5	4,5	3,60	0,01
Kognitiv jihatlari	23,6	4,5	40,6	4,5	-3,40	0,01
Ziyraklik	53,1	4,0	43,1	4,1	3,21	0,05
Sobitqadamlik	11,2	2,2	16,1	2,1	-3,61	0,01
Fuqarolik-vatanparvarlik motivi	38,1	2,4	21,1	1,9	3,5	0,01
Emotsional zavqlanish motivi	14,5	2,4	20,1	2,1	-3,2	0,01
Sportni bilish motivi	20,1	2,1	25,1	2,3	-3,1	0,01
Mas'uliyatlilik	24,1	1,6	12,1	2,0	2,62	0,01
